

## YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIYANING O'RNI

**Akbarova Sadoqat Asadullayevna**

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Mamitaliyeva Xusnira Dilmurod Qizi**

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarni ma'naviyaxloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish. Mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etishda ta'lim, ma'naviyatni tarbiyalash va rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor berilayotganiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, odob, axloq, pedagog, ilmiy faoliyat, strategiya, axloqiy tarbiya

**Аннотация:** В данной статье особое внимание уделяется духовному, нравственному и физическому развитию молодежи, за которой будущее нашей страны, сделать их активными участниками проводимых реформ. Он посвящен проблемам образования, воспитания и развития духовности в решении общественно-политических и культурно-просветительских задач, стоящих перед нашей страной.

**Ключевые слова:** молодежь, духовность, образование, воспитание, манеры, нравственность, педагог, научная деятельность, стратегия, нравственное воспитание

**Annotation:** In three articles, the spiritual, moral and physical development of young people, who are the future of our country, will help them to become active participants. It is dedicated to the problems of education, upbringing and development of spirituality in addressing the socio-political and cultural-educational means facing our country.

**Keywords:** youth, spirituality, training, manners, morality, pedagogue, scientific activity, strategy, moral education

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifikat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham beziz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy

bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat [2].

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliv ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Rus pedagog olimi I.P.Podlsiy (axloqiy) tarbiyani umumiy falsafiy nuqtayi nazardan insonning hayotiy shart-sharoitlarga moslashuvi, ijtimoiy tomondan katta avlod hayotiy va axloqiy tajribalarini yosh avlodga o‘tkazishi, pedagogik jihatdan keng ma’noda insonga barcha ta’sirlar jarayoni va uning natijasi, tor ma’noda o‘quv-tarbiya muassasalarida amalga oshiriluvchi tarbiyachilar tomonidan maxsus tashkil etilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va tarbiyalanuvchilarda belgilangan sifat-fazilatlarni shakllantiradigan boshqariluvchi jamoaviy o‘zaro harakat, amaliy nuqtayi nazardan aniq tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat (tarbiyachilar, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchilar hamkorligida) jarayoni va natijasi deb izohlaydi.

Shuningdek, taniqli rus pedagogi G.M.Kodjasparova tarbiya kategoriyasiga ikki yo‘nalishda yondashadi:

- birinchidan, tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida “yangi avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida ularga ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o‘tkazish jarayoni bo‘lsa,

- ikkinchidan, pedagogik hodisa sifatida insonga mavjud madaniyatni o‘zlashtirishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan (uzluksiz) sharoit yaratish”, deb izohlaydi.

Bu tarbiya maxsus tarbiya muassasalarida, oila, maktab, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, bolalar va o‘smlar birlashmalarida, turar joylardagi klublar singari muassasalarda amalga oshiriladi.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tamonlama o‘sirish, uning ongi, xulq atvori va dunyoqarashini tarkib topdirish jarayonidir. Inson har doim insoniylik qobiliyatini saqlash uchun tarbiya masalasi katta ro’l o‘ynaydi. Tarbiyaning bir necha qismlari mavjuddir. Oilta tarbiyasi, jamiyat tarbiyasi, maktab tarbiyasi va hokozalar.

Bugungi kunda yoshlar masalasi katta ro’l o‘ynamoqda. Zamon misoli shiddat ila rivojlanayotgan bir paytda ularning tarbiyasi ham rivojlanib bormoqda. Tarbiyani ham rivojlantirish uchun oilaning ro’li katta hisoblanadi. Oilada ota-onaning o‘z farzandiga beradigan to’g’ri tarbiyasi bu farzand uchun butun hayoti davomida qo’l bo’ladi. Hadislarda kelishicha ota-onaning farzand uchun beradigan eng katta sovg’asi bu odob-axloqi ya’ni tarbiyasi hisoblanadi. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona deganidek bola tarbiyasida jamiyat o‘rni ham juda katta, sababi

yoshlarning hayot yo’li faqat uyda mas, balki mahalla, ko’cha, maktab va hakoza larda ko’p bo’ladi, ko’cha madaniyati, jamiyat madaniyatini bilishi shu atrofidagi odamlarga bog’liq.[4] Ta’lim-o’quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalarini bilan qurollantirishi, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’sdirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo’naltirilgan jarayon.

Yoshlar ta’limni ko’pincha maktablarda egallagan bilimlardek, boshqa bilim mashqlarida egallahmasa kerak. Sababi psixologlarimiz aytganidek inson umridagi qiladigan deyarli barcha ishlarning hammasini maktab va maktabdan kichik davrda maqsad qo’ygan holatda egallar ekan.

Ta’limni egallah jarayonida yoshlarimiz turli xil bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirmoqda. Buning samarasi o’laroq yurtimizda yaratilayotgan keng ko’lamli islohadlar buning yaqqol dalili sifatida aytishimiz mumkun.[3] Ta’lim va tarbiya har doim bir-biriga bog’liq yani bog’langan holda bo’ladi. Sababi har bir o’smir yosh avlodda psixik jihatdan o’zgarishlar bo’lib turadi, ularni biz insoniyatni davrlashtirish muammosi orqali bilamiz. Shu jihatlarni ijobiy hal etish uchun, albatta ham ta’limning ham tarbiyaning o’rni bor deb aytishimiz mumkun. Zero ta’lim va tarbiya qadim, bundan bir necha ming yillar avval ham ilk svilizatsiya davrida taroqqiyot etgan.

Bugungi kunda yoshlarimiz har bir sohada o’zlarini dunyoga tanitayotganini ko’rib, ham ta’limning ham tarbiyaning mevasi sifatida aytishimiz mumkun. Zero bilimli avlodni, ziyoli barkamol shaxsni albatta buyuk pedagog kadrlar tayyorlab chiqarishi bilan mehnati naqadar taqsinga sazovarligini aytish mumkin. Shunday ekan ta’lim tarbiya shu yetuk pedagoglar tomonidan mahorat ila tushuntiriladi, ukdiriladi. Yangi O’zbekiston, yoshlarining ma’naviyatili kamol topishida ta’lim tarbiya uyg’unligi mashaqatli kasb egalari ustoz va murabbiylari yetuk pedagoglar tomonidan maroq ila amalga oshirilmoqda.

### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g’risida”gi farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 02 iyuldaggi PF-4947-sod Farmoni 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (1-ilova).

3. Psixologiya va pedagogikaning ensiklopedik lug’ati. Saratov: Saratov davlat ijtimoiy-iqtisodiy universiteti, 2013. – 322-bet

4. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O’SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики

и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>

5.Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).

6.Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.

7.Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.

8.Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O’SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>

9.Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).

10.Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.

11.Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.

12.М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.

13.Eshmurodov, O. (2023). SOG’LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>

14.Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>